



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



INSON HAYOTIDA FAOLIYATNING ROLI VA AHAMIYATI

N. B. Nuriddinova

Samarqand davlat chet tillar institute

Ingliz fakulteti talabasi

O.I. Yadgarova

Ilmiy rahbar: Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola psixologiyada faoliyatning roli va ahamiyatini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Faoliyat insonning psixologik rivojlanishida, ijtimoiy muloqotlarida va kognitiv jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Maqolada faoliyatning psixologik asoslari, uning psixologik holat, motivatsiya, diqqat, xotira, o‘rganish va hissiyotlarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, faoliyatning turli shakllari va uning psixologik jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil etiladi. Psixologik faoliyat individual rivojlanish, shaxsiy o‘sish va professional faollikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy va madaniy kontekstda faoliyat insonning ijtimoiy identitetini shakllantiradi, ijtimoiy aloqalarni yaxshilaydi hamda o‘zaro munosabatlar va hissiy intellektni rivojlaniradi. Maqola shuningdek, faoliyat va uning psixologik faollik bilan bog‘liqligini, diqqat va ichki motivatsiya asosida qanday rivojlanishini ham tahlil qiladi. Faoliyatni psixologik nuqtai nazardan o‘rganish, insonning kognitiv va emotSIONAL holatiga qanday ta’sir qilishini anglashda yordam beradi. Maqola faoliyatning psixologik nuqtai nazaridan to‘liq tahlilini taklif etadi va uning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini yanada chuquroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: faoliyat, faollik, harakat, faoliyatning interiorizasiysi va eksteriorizasiysi, faoliyat turlari: o‘yin faoliyati, mehnat faoliyati, sport faoliyati, ta’lim faoliyati, motiv, maqsad.

Abstract: This article focuses on the role and importance of activity in psychology. Activity plays a significant role in human psychological development, social interactions, and cognitive processes. The article examines the psychological foundations of activity, its impact on psychological states, motivation, attention, memory, learning, and emotions. It also analyzes the different forms of activity and their influence on psychological processes. Psychological activity is essential for individual development, personal growth, and enhancing professional activity. In social and cultural contexts, activity shapes one's social identity, improves social relationships, and develops emotional intelligence. The article also discusses the relationship between activity and psychological activity, highlighting how it evolves based on attention and intrinsic motivation. Studying activity from a psychological perspective helps understand how it influences cognitive and emotional states. The article provides a comprehensive analysis of activity and offers insights into its role and importance in human life.





Keywords: *activity, activeness, action, interiorization and exteriorization of activity, types of activity: play activity, work activity, sports activity, educational activity, motive, goal.*

Faoliyat inson hayotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning psixologik rivojlanishiga va ijtimoiy aloqalariga bevosita ta’sir qiladi. Psixologiyada faoliyatni o‘rganish, uning turli shakllarini va psixologik jarayonlarga ta’sirini tahlil qilish orqali insonning o‘zini anglashiga va jamiyatdagi o‘rni haqida yanada chuqurroq tushunchalar hosil qilish mumkin. Faoliyat nafaqat insonning kognitiv, emotsiyal holatini shakllantiradi, balki uning ruhiy va jismoniy salomatligiga ham bevosita ta’sir qiladi. Ijtimoiy va madaniy muhitda faoliyatning roli ayniqsa katta bo‘lib, u shaxsning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy integratsiyaga va o‘zaro munosabatlarining sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada faoliyatning psixologik asoslari, uning diqqat, motivatsiya, xotira, o‘rganish kabi psixologik jarayonlar bilan bog‘liq o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, faoliyatning turli shakllari va uning insonning ruhiy holatiga ta’siri haqida ma’lumot beriladi.

Hayvonlarning xatti-harakatlari, asosan, atrof-muhit va tabiiy instinktlar bilan belgilanadi, ya’ni ular o‘z faoliyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri muhit ta’sirida amalga oshiradilar. Biroq, inson faoliyati boshqacha va yanada murakkabdir. Insonning faolligi ilk yoshlikdan boshlab, jamiyatning tarbiyasi, madaniyati va tarixiy tajribasi asosida shakllanadi. Shuning uchun, “faoliyat”, “faollik” va “xatti-harakat” tushunchalarining mazmunini chuqr tushunish juda muhimdir.

“Faoliyat - kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir”¹⁸ -deb ta’riflanadi. M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan “Psixologiya” qisqacha izohli lug‘atida: **“Faollik** - tirik materiyaning umumiyl xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Psixik faollik bu o‘zaro ta’sir shu asosda faollik ko‘rsatish bilan tavsiflanadi”-deya ta’riflangan.

Faoliyat - insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘z-o‘zini bilishga, uni qayta qurishga yo‘naltirilgan faolligidir.¹⁹

Harakat - maqsadga muvofiq yo‘naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi. Harakat ongli faoliyatlarning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Faoliyat va faollik haqida psixologlar, filosoftlar va ijtimoiy fanlar mutaxassislari turli fikrlar bildirgan. Quyida ba’zi asosiy fikrlarni keltiraman:

1. Vygotskiy (Lev Vygotsky) – Faoliyatni shaxsning atrof-muhitga ta’sir o‘tkazishining bir shakli sifatida ko‘rgan. U faoliyatni o‘zaro aloqada bo‘lgan shaxs va jamiyat o‘rtasidagi

¹⁸ A.V.Petrovskiy “Umumiyl psixologiya” darsligi Moskva, 1976

¹⁹ I.Xalilova “Umumiyl psixologiya” darsligi, Toshkent 2009.

<https://lib.jdpu.uz/storage/uploads/files/Umumiyl%20psixologiya.%20Xalilova.pdf>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘zaro bog‘liqlik sifatida tushuntirgan. Uning fikriga ko‘ra, inson faolligi ijtimoiy muloqot va jamiyat bilan interaktiv jarayonlar orqali rivojlanadi.

2. Pavlov (Ivan Pavlov) – Pavlov, faoliyatni asosan reflekslar va hayvonlarning instinktiv harakatlari bilan bog‘lagan. Uning faollik tushunchasi shaxsnинг tashqi va ichki stimullarga javobini tashkil etadi. Pavlovning faoliyatga bo‘lgan yondashuvi biologik asoslarda turgan.

3. Mihail Bakhtin – Faoliyat va faollikni ijtimoiy va madaniy jarayonlar sifatida tushungan. U, faoliyatni faqat shaxsnинг ichki faoliyati emas, balki jamiyat bilan bo‘lgan o‘zaro aloqalari va madaniy munosabatlarining ham ifodasi deb hisoblagan.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishida namoyon bo‘ladi.²⁰

Faoliyatning interiorizasiyasi va eksteriorizasiyasi. Tashqi real ishdan ichki ideal ishga mana shunday o‘tish jarayonini *interiorizatsiya* deb yuritiladi. Inson aqliy taraqqiyotida interiorizasiyaning ahamiyati kattadir.

Ma’lumki, odamning ichki dunyosi paydo bo‘lgandan so‘ng har bir narsani, har bir harakatni oldindan ichida o‘ylab so‘ngra amalga oshiradi. Oldin ichida o‘ylab, so‘ngra bevosita tashqi munosabatga o‘tishi faoliyatning *eksteriorizasiyasi* deb yuritiladi.

Inson shaxsining shakllanishi o‘yin, ta’lim, mehnat, sport va boshqa faoliyatning turlarida amalga oshadi. Faollik tufayli faoliyatni amalga oshirish jarayoni yuzaga keladi, xulq-atvor, muomala (kommunikasiya) vositasida ehtiyoj, istak, ijtimoiy talablar qondiriladi, turli xususiyatli axborotlar o‘zlashtirilishi natijasida shaxs tarkib topa boshlaydi.

O‘yin faoliyati. Faoliyatning oddiy shakllaridan biri o‘yin hisoblanadi, lekin u tobora takomillashib, sodda harakatlardan keyinchalik syujetli, roli o‘yinlarga, hatto sportgacha murakkablashib boradi, atrof muhitni aks ettirishida ishtirok eta boshlaydi. Insonning borliqni in’ikos etishidagi dastlabki urinishni harakat orqali namoyon bo‘ladi. Harakatlar bolaning tabiatga, uni qurshab turgan kishilik dunyosiga nisbatan munosabatini, ular to‘g‘risidagi ilk taassurotlar, sodda tasavvurlar, bilimlarni o‘zlashtirishni anglatib keladi. Keyinchalik oddiy harakatlar muayyan ma’no kasb etib, syujetli va rolli o‘yinlarga aylanadi.²¹

Mehnat faoliyati – ma’lum ijtimoiy foydali, moddiy yoki madaniy, ma’naviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iborat. Kishilarning mehnati ma’lum maqsadga qaratilgan har doim ijtimoiy tabiatga ega bo‘ladi. Mehnat faoliyatining maqsadi kishilarning iste’mol qilinadigan narsalarni, ya’ni non, mashinalar, turli ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlash, ya’ni kiyim-kechak oziq-ovqat va boshqa shu kabi narsalarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Mehnat faoliyati o‘z mohiyati jihatdan ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti tufayli birorta kishi ham o‘ziga kerak bo‘ladigan narsalarni faqat ishlab chiqarishga qatnashmay, balki deyarli hech qachon hatto

²⁰ SH. Baratov, L.Olimov, O.Avezov “Psixologiya nazariyasi va tarixi” darsligi Toshkent 2019 (477.b)

²¹ E. G‘oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent – “Universitet” – 2002





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



birgina narsani boshdan oxirigacha ishlab chiqarishda ham qatnashmaydi. Shuning uchun odam hayoti uchun zarur bo‘lgan hamma narsalarni jamiyatdan oladi, o‘z ehtiyojlarini qondiradi.

Ta’lim faoliyati ma’lum ravishda tashkil etilgan sharoitda amalga oshiriladi. Katta yoshli kishilar bolalarning taraqqiyotiga faol ta’sir etib, ularning ta’lim faoliyatlarini hamda bu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlarni tashkil qiladilar. Bu faoliyat va harakatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasini o‘rganish tomon yo‘naltirishdir. Shunday qilib, ta’lim faoliyati katta kishilar tomonidan tashkil qilinib, boshqariladi va tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Ma’lumki, ta’lim faoliyati bilan tarbiya ishlari uzviy bog‘liqdir. Bizning maktablarimizda har qanday ta’lim jarayoni hamma vaqt tarbiyaviy xarakterga ega, bolalarga u yoki bu fan bo‘yicha ta’lim berar ekanmiz, shuning bilan birga ularni biz tarbiyalashimiz kerak. Maktabdagi tarbiyaviy ishlarni asosan tushuntirish, ishontirish, ko‘rsatish, rag‘batlantirish, talab qilish, vazifa berish va jazolash kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Maktabdagi barcha tarbiyaviy ishlarni asosiy maqsadi o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.²²

Faoliyat, bir tomondan, shaxsnинг rivojlanishi va uning sifatlarini namoyon etishning sharoiti bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu faoliyatni amalga oshiruvchi shaxsnинг taraqqiyot darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Har qanday faoliyat turi tarkibida uch asosiy tarkibiy qismni ajratish mumkin: maqsad, motiv va harakat.

- ❖ Maqsad – inson faoliyatining so‘nggi natijasini ifodalaydigan obraz bo‘lib, uning ehtiyojlarini qondirish vositasidir.

- ❖ Motiv – shaxsni faoliyatga undovchi va uning mazmunini belgilovchi ichki kuchdir.

- ❖ Harakat – odadta birgina aniq vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangan faoliyat qismi hisoblanadi. Faoliyatga yo‘naltirilgan maqsad yaqin yoki uzoq muddatli bo‘lishi mumkin.

Quyida talabalar bilan o‘tkazilgan psixologik mashg‘ulot tajribasini keltiraman. Mashg‘ulot davomida faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari – maqsad, motiv va harakatni amaliyotda tushunish va ularning o‘zaro bog‘liqligini anglash masalalari ko‘rib chiqildi.

Mashg‘ulot nomi: “Faoliyatning tarkibiy qismlarini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish”

Mashg‘ulotning maqsadi: Talabalarda faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari – maqsad, motiv va harakatni tushunish, ularning o‘zaro bog‘liqligini amaliy mashg‘ulot orqali namoyon etish va shaxsiy faoliyatlarini rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Jarayon: Talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruhga faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha topshiriq berildi. Ular o‘zлari uchun quyidagi struktura asosida vazifa tanlashlari kerak edi:

- Maqsad: Faoliyatning yakuniy natijasi sifatida belgilandi.

²² Ilmiybaza.uz https://ilmiybaza.uz/?utm_source=chatgpt.com





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- Motiv: Ushbu maqsadga yetishish uchun ichki turtki bo‘ldi.
- Harakat: Maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan aniq qadamlar rejalashtirildi.

Bir guruh tomonidan quyidagi loyiha tanlandi:

- Maqsad: Universitetdagi talabalarni kitobxonlikka jalb qilish.
- Motiv: Talabalarning bilim va madaniyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish.
- Harakat: Kitobxonlik tadbirlarini tashkil etish, reklama bannerlarini joylashtirish va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot olib borish.

3. Taqdimot va muhokama

Mashg‘ulotning asosiy bosqichida har bir guruh o‘z faoliyat loyihasini taqdim etdi. Ularning taqdimotlari davomida quyidagi savollar muhokama qilindi:

- Tanlangan maqsad qanchalik realistik va aniq?
- Motivlar maqsadga erishishda qanday rol o‘ynadi?
- Amalga oshirilgan harakatlar samaradorligini qanday baholash mumkin?

Muhokama jarayonida talabalar o‘z loyihalari haqida mulohaza yuritishdi va birlarining ishlarini baholab, qo‘sishma takliflar berdilar.

4. Mashgulot xulosasi va natijalar: Mashg‘ulot yakunida talabalar faoliyatning tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘liq holda tushunishdi. Ular quyidagi xulosalarga kelishdi:

- ✓ Faoliyat maqsadiga erishishda motivlarning aniq bo‘lishi katta ahamiyatga ega.
- ✓ Harakatlarning rejalashtirilganligi natijalarga ta’sir qiladi.
- ✓ Faoliyatning qisqa va uzoq muddatli maqsadlarini belgilash natijalarni yaxshilashga yordam beradi.

Mazkur mashg‘ulot talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki ularning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qildi.

Shuni aytish kerakki, faoliyat inson hayotining asosiy ko‘rinishi bo‘lib, uning rivojlanishi va o‘zini namoyon etishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Faoliyat jarayoni shaxsning ehtiyojlari, maqsadlari va motivlariga asoslanib amalga oshadi. Ushbu tarkibiy qismlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, faoliyatning samaradorligini belgilaydi. Faoliyatning shaxs rivojlanishidagi o‘rni katta. U nafaqat shaxsning mavjud salohiyatini oolib beradi, balki uning yangi qirralarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, faoliyat jarayonini o‘rganish va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish psixologiya fanida muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada keltirilgan fikrlar va tahlillar faoliyatga yanada chuqurroq nazar tashlashga imkon beradi hamda uning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini yanada oolib beradi. Faoliyatga ongli yondashish va uni maqsadli rejalashtirish shaxsning muvaffaqiyat va farovonlik sari harakatini kafolatlaydi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. A.V.Petrovskiy “Umumiy psixologiya” darsligi Moskva, 1976
2. I.Xalilova “Umumiy psixologiya” darsligi, Toshkent 2009.
<https://lib.jdpu.uz/storage/uploads/files/Umumiy%20psixologiya.%20Xalilova.pdf>
3. SH. Baratov, L.Olimov, O.Avezov “Psixologiya nazariyasi va tarixi” darsligi Toshkent 2019 (477.b)
4. E. G‘oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent – “Universitet” – 2002
5. U. Fayziyeva, N. Jumayev “Umumiy psixologiya” Buxoro – 2021
6. Ilmiybaza.uz https://ilmiybaza.uz/?utm_source=chatgpt.com
7. Azkurs.org sayti https://azkurs.org/?utm_source=chatgpt.com

